

# **Xorijda O'zbekiston deputatlari saylovida qanday ovoz berish mumkin?**

**2024 26 October**

Boshqa davlatlarda istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida mamlakatimizning 39 ta davlatdagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida 56 ta saylov uchastkasi tashkil etildi. Ushbu **havola** orqali o'zingizga eng yaqin saylov uchastkasi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Shuningdek, 27-oktabr kuni bo'lib o'tadigan parlament saylovlariiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida «saylov.mfa.uz» sayti ishga tushirildi. Mazkur sayt O'zbekiston Respublikasining xorijdagi fuqarolariga konsullik hisobida turmasdan ovoz berish uchun saylovchilar ro'yxatiga kiritishga elektron murojaat qilish imkonini beradi.